




elita<sup>uz</sup>

Elektron Ilmiy  
Jurnal

№.3 (2)  
**2024**

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

|                                                                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i><br>INNOVATSION TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA MOHIYATI .....                                                 | 3  |
| <i>Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi</i><br>OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI KORRUPTSIYAVIY HOLATLARNI SODIR ETUVCHI<br>SHAXSLAR TASNIFI .....          | 19 |
| <i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i><br>O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA<br>QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TABIATI ..... | 26 |
| <i>Qozixonova Duraxshon Nasriddinovna</i><br>ISLOM HUQUQIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA HALOLLIK TAMOYILI .....                                     | 33 |
| <i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i><br>ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARGA OID<br>QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....       | 42 |
| <i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i><br>SUD ISHLARINI YURITISHDA SHAFFOFLIKNI TAMINLASH ZARURATI VA<br>MOHIYATI .....                          | 52 |

## **ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARGA OID QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**Aliyeva Marjona Obid qizi** | [marjona.aliyeva@icloud.com](mailto:marjona.aliyeva@icloud.com)

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari jamiyatimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Axborot texnologiyalarini joriy qilish tufayli ish yuritish madaniyatining elektron ko'rinishi shakllanmoqda. Jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron to'lovlar tizimi va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar samaradorligini oshirish uchun keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu maqolada elektron tijoratning O'zbekistondagi holati, uni davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishini takomillashtirishning zarurati, elektron tijorat sohasining davlat siyosatidagi asosiy yo'nalishlari, shuningdek, mamlakatimizda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga to'siq bo'layotgan muammo va kamchiliklar va ularni bartaraf etish uchun bir qancha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron to'lov, raqamli iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalar, davlat siyosati, elektron tijorat subyektlari va boshqalar.

---

## **DEVELOPMENT TENDENCIES OF LEGISLATION REGARDING CONTRACTUAL RELATIONS IN ELECTRONIC COMMERCE**

**Aliyeva Marjona Obid qizi**

*Master's degree student of Tashkent State University of Law*

**Abstract.** Today, information and communication technology services are rapidly entering all aspects of our society. Due to the introduction of information technologies, the electronic form of business culture is being formed. In particular, a wide range of conditions are being created for the provision of new types of banking services based on modern information technologies, e-commerce, e-contract, electronic payment system, and the improvement of the efficiency of mutual settlements between economic entities. In this article, the state of e-commerce in Uzbekistan, the need to improve its legal regulation by the state, the main directions of the state policy of the e-commerce sector, as well as the problems and shortcomings that hinder the creation of a full-fledged e-commerce market in our country and their elimination several proposals and recommendations have been developed to achieve this.

**Key words:** e-commerce, e-contract, e-payment, digital economy, information and communication technologies, state policy, e-commerce entities, etc.

---

## ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О ДОГОВОРНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛЕ

**Алиева Марджона Обид кизи**

*Магистрант Ташкентского государственного юридического университета*

**Аннотация.** Сегодня услуги информационных и коммуникационных технологий быстро проникают во все аспекты жизни нашего общества. Благодаря внедрению информационных технологий формируется электронная форма деловой культуры. В частности, создается широкий спектр условий для предоставления новых видов банковских услуг на основе современных информационных технологий, электронной коммерции, электронного контракта, системы электронных платежей, повышения эффективности взаиморасчетов между субъектами хозяйствования. В данной статье рассмотрено состояние электронной коммерции в Узбекистане, необходимость совершенствования ее

правового регулирования со стороны государства, основные направления государственной политики сферы электронной коммерции, а также проблемы и недостатки, препятствующие созданию. Для создания полноценного рынка электронной коммерции в нашей стране и их ликвидации разработан ряд предложений и рекомендаций.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, электронный договор, электронные платежи, цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, государственная политика, субъекты электронной коммерции и др.

---

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyot sohasiga keng joriy etilishi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida tovar va xizmat ko'rsatishdagi aloqalarning yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Ayni paytda O'zbekistonda elektron tijoratni xo'jalik texnologiya jarayonlariga faol joriy etish va undan samarali foydalanish, mijozlarning internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali interaktiv xizmat ko'rsatishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy integratsiyalashuv va globallashuv sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan, kichik biznes vakillari va tadbirkorlarning o'z faoliyatida elektron to'lov va elektron tijoratni joriy etishi ularning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga milliy iqtisodiyotda yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishlariga sabab bo'lmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni qayd etish lozimki, so'nggi bir necha yil ichida elektron tijorat global chakana savdoning ajralmas qismiga aylandi. Boshqa ko'plab sohalar singari, tovarlarni sotib olish va sotish Internet paydo bo'lishidan keyin jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va zamonaviy hayotning davom etayotgan raqamlashuvi tufayli butun dunyodagi iste'molchilar endi onlayn tranzaksiyalarning afzalliklaridan foydalanmoqda. Dunyo bo'ylab Internet orqali buyurtmalar tez sur'atlar bilan o'sib borayotgani sababli, butun jahonda **5 milliarddan** ortiq internet foydalanuvchilari onlayn xaridlarni amalga oshirishi kutilmoqda. **2022-yilda chakana elektron tijorat** savdosi global miqyosda **5,7 trillion** AQSh dollaridan oshdi va kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yangi cho'qqilarga chiqishi kutilmoqda. O'zbekiston Respublikasining statistika portali ma'lumotlariga asosan, yurtimizda elektron tijorat va chakana savdo hajmlarini yildan yilga o'sishi kuzatilgan bo'lib, unga ko'ra, 2022-yilda elektron tijorat savdo

hajmi 2021-yilga nisbatan 1.8 barobar oshib, chakana savdo hajmining 4 foizdan (10886.8 mlrd. so'm) ortiqroq ulushini tashkil etgan. Guvohi bo'lganimizdek, ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda elektron tijorat sohasi yildan yilga rivojlanayotganligidan va ushbu sohada qator yangiliklar va islohotlar amalga oshirilishi kerakligidan dalolat bermoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Elektron tijoratning tez sur'atlar bilan o'sishi ushbu institutni nafaqat bozor va texnologik jihatlardan, balki huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Tadbirkorlar va iste'molchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi raqamli shaklda iste'mol qilish jarayoniga xizmat qiladi.<sup>[1]</sup> Xalqaro ekspertlarning hisobotlariga ko'ra, 2022-yilda jahon chakana savdosida chakana elektron tijoratning ulushi 24,0 foizni tashkil etdi. Mazkur hisobotga ko'ra, top-5 talikka Xitoy (45,3 %), Buyuk Britaniya (35,9%), Janubiy Koreya (30,1 %), Indoneziya (28,1 %) va Singapur (17,2 %) mamlakatlari yetakchilik qilib kelmoqda. Ammo O'zbekistonda chakana savdo hajmida elektron tijoratning ulushi 0,6 foizni tashkil etib, jahon o'rta ko'rsatkichlariga nisbatan ancha past hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlarning tarkibiy qismlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etishni ta'minlashdan iborat. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda imzolangan "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorini alohida ta'kidlash joiz.<sup>[2]</sup> Bundan tashqari, 2022-yil 19-yanvarda "2022-2026-yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilingan bo'lib, strategiyaning 29-maqsadida "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" belgilangan.

Elektron tijoratda shartnoma tuzishning huquqiy tartibga solinishini belgilab beruvchi qonun hujjatlari orasida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi, Qonuni, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Tijorat siri to'g'risida"gi, "Raqobat to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Iste'molchilarning



huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi , "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi , "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi , "Davlat xaridlari to'g'risida"gi , "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa qonunlar asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, elektron tijorat huquqi manbalari tizimida Iqtisodiy protsessual kodeks, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Soliq kodeksi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunlar ham bilvosita muhim o'rin tutadi.

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, statistik va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanilgan.

**Muhokama va natijalar.** O'zbekistonda bu sohadagi qonunchilikning birlamchi manbalari 2000-yillarning o'rtalarida shakllangan. Elektron tijorat faoliyatining asosiy tushunchalari va qoidalarini belgilab bergan asosiy huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni bo'ldi.<sup>[3]</sup> "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning birinchi tahriri 2004-yilda qabul qilingan bo'lsa, 2015-yilda yangi tahrirdagi qonun tasdiqlangan. 2004-yilgi qonun 14 moddadan iborat bo'lib, 2015-yilgi 20 ta moddadan iborat bo'lgan. Unda birinchi marta elektron tijorat tamoyillari (5-modda), elektron tijoratda davlat va korporativ xaridlar (17-modda), elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish (18-modda), elektron tijorat ishtirokchilarning (11-modda) va axborot vositachilari (13-modda) huquq va majburiyatlari, shuningdek, elektron tijoratda shartnoma tuzish tartibi (4-bob) sezilarli darajada batafsil yoritilgan.

Muhim jihati shundaki, qonun chiqaruvchilarning elektron tijorat atamasini fuqarolik huquqini idrok etish nuqtai nazaridan tushunishdagi ijobiy o'zgarishlarni yuqoridagi ikki qonunda elektron tijoratga berilgan ta'rifdan ham anglash mumkin. Elektron tijorat to'g'risidagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqishda rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy an'analarga rioya etgan holda 2022-yilda yangi tahrirda "Elektron tijorat to'g'risida" qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi. Ushbu qonun "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasida belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, elektron tijoratda shartnoma tuzish tushunchasi, ularning huquqiy tartibga solish, ularni imzolash masalalari yuzasidan aniq tartibni belgilab berdi. Xususan, elektron tijorat subyektlari elektron tijorat

ishtirokchilari, elektron tijoratni tartibga solib turuvchi davlat organlari, axborot vositachilari kabi turlarga ajratildi.

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi<sup>[4]</sup> qonun – axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish va xalqaro axborot tarmoqlariga kirish uchun shart-sharoitlarni, axborot resurslari, xizmatlar va texnologiyalar bozorini shakllantirish, shuningdek, axborotlashtirishni rivojlantirishga ko‘maklashishni belgilab berdi. Ko‘rib chiqilayotgan elektron tijorat institutiga kelsak, mazkur qonun bilan axborotni hujjatlashtirish (8-modda), yuridik va jismoniy shaxslarning ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot resurslaridan foydalanishi (14-modda), bitimlar uchun axborot tizimlaridan foydalanish qoidalari (16-modda) belgilandi.

“Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi<sup>[5]</sup> qonunda belgilangan elektron hujjat aylanishidan operatsiyalarni bajarish uchun foydalanish mumkinligi (4-modda), elektron hujjat esa qog‘ozdagi hujjatga tenglashtiriladi va bir xil yuridik kuchga egaligi (7-modda) ushbu elektron tijorat huquqiy sohasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki elektron tijorat huquqi subyektlari elektron oferta, elektron aksept, shuningdek, elektron tuzilgan shartnomalarni axborot tizimi orqali tuzishadi hamda, ushbu qonun bilan elektron hujjatlarning aylanishi tartibga solinadi. Bundan tashqari 2019-yilda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinadi. Elektron tijoratda elektron shartnoma tuzilganda shartnoma ishtirokchilari o‘rtasidagi hisob-kitoblar elektron to‘lov yo‘llari orqali amalga oshirilishini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu qonun mijozlar tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlarning aniqligi, ko‘rsatilgan hisob raqamiga kelib tushganligi va xavfsizligi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Bu esa, elektron to‘lovlarni amalga oshirish qonun bilan muhofaza qilinishini anglatadi.

Shuningdek, “Raqobat to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlar ham elektron tijorat munosabatlari shartnoma tuzishning raqobat qonunchiligiga amal qilishi, nohalol raqobatga yo‘l qo‘ymaslik, tovar va xizmatlar narxining haddan ziyod oshib ketmasligi, bundan tashqari korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

“Reklama to‘g‘risida”gi qonun o‘z navbatida axborot maydonida raqobatdosh yuridik shaxslarning bir-birini xurmat qilishi, yashirin reklama, yolg‘on reklama, axloqsiz, nomaqbul reklama qilish javobgarlik keltirib chiqarishi



belgilangan. Xususan, elektron tijorat subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish hamda elektron tijorat subyektlari tomonidan bitimlar tuzish tartibini, elektron tijoratda qo'llaniladigan elektron hujjatlar va xabarlarni saqlash tartibini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 185-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat elektron tijoratni amalga oshirishda eng zarur va muhim bo'lgan masalalarni tartibga solishi bilan boshqa normativ huquqiy hujjatlardan farq qiladi. Jumladan, qarorda elektron tijorat tushunchasi, elektron savdo maydonchasi, elektron xabar, elektron vosita, elektron hujjat almashinuvi, elektron shartnoma, aksept, axborot tizimi, axborot vositachisi, axborot resursi, oferta, xaridor, sotuvchi, elektron tijorat ishtirokchisi kabi elektron tijoratning eng muhim atributlari komplekslashtirilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2-iyundagi 185-son qarori bilan "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidolari" tasdiqlangan. Unda elektron tijoratda shartnoma tuzish tartibi, elektron hujjat va elektron xabarning elektron shartnomadan farqlari aks etgan".<sup>[6]</sup> Ushbu qaror ilovasida shuningdek, elektron tijoratni amalga oshirish sxemasi berilgan bo'lib, bu jarayon to'rt bosqichga bo'lingan. Birinchi bosqichda, sotuvchi o'z axborot tizimida yoki axborot vositachisining savdo maydonchasida shartnoma shartlari mavjud bo'lgan ofertani joylashtiradi. Ikkinchi bosqichda, xaridor ofertani uch xil yo'l bilan akseptlaydi:

1. Elektron hujjatning elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishini nazarda tutadigan elektron hujjat tarzida;

2. Matnida elektron tijorat ishtirokchisining roziligi bo'lgan elektron xabar tarzida akseptlash yo'li bilan;

3. Ofertada mavjud bo'lgan shartlarni bajarish bo'yicha harakatlarni sodir etish vositasida ofertani qabul qilish, elektron hujjatni tuzish. Uchinchi bosqichda xaridor to'lovni: a) bank plastik kartalaridan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminalini qo'llash; b) shaxsiy kabinet orqali yoki chakana to'lovlar tizimi orqali mablag'larni bank plastik kartasiga o'tkazish; c) bank hisob raqamidan pul mablag'larini o'tkazish vositasida amalga oshirishi mumkin. To'rtinchi bosqich tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish deb nomlanib, tovarni yetkazib berish: a) sotuvchining o'z transportida mustaqil ravishda; b) tovarlarni yetkazib berish xizmatlari

ko'rsatish huquqiga ega uchinchi shaxs orqali; c) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan yetkazib berishning boshqa usullari bilan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" stratyegiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonining qabul qilinishi, shuningdek mazkur Farmonning 2.3.bandida Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida "elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog'i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko'lamlarini oshirish, elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to'lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish, elektron tijoratning rivojida muhim rol o'ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik yangilashni ta'minlash, logistika markazlarini (fulfilment) yaratish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalarini va pochta aloqasi obyektlarida avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish, jismoniy shaxslarga Internet jahon axborot tarmog'i orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni to'lashni tashkil etish jarayonini osonlashtirishga imkon beradigan to'lovlar agregatorlarini rivojlantirish, transchyegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qulay va o'z vaqtida eksport qilishni ta'minlash, bitta savdo maydonchasida keng ko'lamli bank va bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni (qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, sug'urta va boshqalar) taqdim etishga yo'naltirilgan

moliyaviy supermarketlarning biznes modelini yaratish, tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish, elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash o'quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish"<sup>[7]</sup> kabi chora tadbirlar belgilangan.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, elektron tijorat sohasidagi qonun hujjatlarining rivojlanib borish tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston elektron tijoratni rivojlantirish uchun yildan-yilga qonunchilik tizimini takomillashtirib, xalqaro standartlarga moslashtirib bormoqda. Elektron tijoratni rivojlantirish uchun yuqorida aytib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish elektron tijoratda shartnoma tuzishni huquqiy tartibga solinishiga, kelgusida ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish yo'lida yangi bir qadam bo'lmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad ham aslida, elektron tijoratda shartnoma tuzishni huquqiy tartibga solinishini mustahkamlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish, xalq farovonligiga erishish, jamiyatda elektron tijorat huquqini rivojlantirishda mustahkam asos qurishdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Грибанов Ю.И. Цифровая трансформация социально-экономических систем на основе развития института сервисной интеграции: дис. д-ра экон. наук: Ю.И. Грибанов. – СанктПетербург, 2019. - 355 с. [Электронный ресурс] // URL: <https://unecon.ru/sites/default/files/dissgribanovui.pdf> (дата обращения: 15.03.2021).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020 yil - 29 aprel. – № 07/20/4699/0520.
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi 2004 yil 29 apreldagi 613-II-son Qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2004. - 20-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 2003 yil 11 dekabrda 560-II-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2014 yil - 36-son.

5. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004 yil 29 apreldagi 611-II-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2004. - 20-son.
6. Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 yildagi 185-son qarori, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2022y., 09/22/471/0767-son)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" stratyegiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son; 02.04.2021 y., 06/21/6198/0269-son.